

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

O'ZBEK TILIDA “XAFALIK” KONSEPTINI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIK IBORALAR

Murodova Aziza Xudoyberdiyevna

O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti mustaqil tadqiqotchisi,

E-mail: afifa2021@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada kognitiv tilshunoslik va u asosida yuzaga kelgan konsept va tushuncha, dunyoning lingvistik va madaniy (konseptual) manzarasi to'g'risida so'z boradi. O'zbek tilida yaratilgan frazeologik iboralar “xafalik” konsepti doirasida tadqiq qilindi. Tadqiqot davomida “xafalik” konseptini ifoda etuvchi frazemalar orqali insonlardagi g'am-alam, ruhan tushkunlik, ma'yuslik kabi ezgin holatlarni ifodalovchi his-tuyg'ular yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Kognitiv tilshunoslik, konseptual manzara, lingvokulturologiya, frazeologik konsept, xafalik, tushkunlik.

Abstract. This article talks about cognitive linguistics and the concepts and understandings based on it, the linguistic and cultural (conceptual) landscape of the world. Phraseological expressions created in the Uzbek language were studied within the framework phrases of the concept of "grievance". During the research, the emotions that represent the sad state of people, such as grief, depression, and depression, were highlighted through the concept of "sadness".

Key words: Cognitive linguistics, cultural (or conceptual) view of the world, linguistic culture, phraseological concept, sulkiness.

Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida til tizimida insonning bilish faoliyatidagi ishtiroki nuqtayi-nazaridan qarash zarurati paydo bo'ldi. Til nafaqat ma'lumot, bilim, axborotlarni uzatishda vositachilik qiladi, balki ikkinchi bir shaxs tomonidan uzatilgan ma'lumotni dekodlaydi. Kognitiv tilshunoslik o'tgan asrning so'ngi choragida tilshunoslik sohasiga kirib kela boshladi va XXI asr boshlarida tilshunoslikning ilg'or yo'nalishlaridan biriga aylandi. Kognitiv tilshunoslikning yuzaga kelishi J.Miller, J.Bruner, J.Larkoff, R.Langaker, R.Jakendoff kabi amerikalik tilshunos olimlarning tadqiqotlari bilan bog'liqdir. Kognitiv tilshunoslik til va ong o'rtasidagi muammolarni, dunyoni konseptualashtirishda tilning rolini, insonning individual kognitiv qobiliyatlari bilan bog'liqligini, ularning o'zaro ta'siri shakllarini o'rganadigan yo'nalish hisoblanadi. Kognitiv tilshunoslikdan hosil bo'lgan konseptualizatsiya esa olamning hodisa va jarayonlarining kognitiv xususiyatlarini aniqlash jarayoni bo'lib, ular insonga bu hodisa haqida aniqlangan tushunchani beradi. Bu bilan birgalikda konseptualizatsiyada bu tushunchalarni yodda tutish, yangi ma'lumotlar bilan to'ldirish, uni boshqa hodisa va jarayonlardan ajrata olish imkonini beradi.

S.G.Ter-minasovanning fikricha, inson til bilan real dunyoning o'rtasida turadi, bu dunyoning sezgi organlari orqali idrok etuvchi va shu asosda dunyo haqidagi tasavvurlar tizimini yaratuvchi shaxsdir. Inson ularni o'z ongi orqali o'tkazgandan

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

so‘ng, bu idrok natijalarini tushuntirib, ularni til yordamida boshqalarga yetkazadi [6;40]. Tilshunoslarning fikricha, til, tafakkur va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, ular amalda ushbu uchta komponentdan iborat yagona yaxlitlikni tashkil qiladi:

Haqiqiy dunyo	Fikrlash / madaniyat	til / nutq
Predmet, hodisa	Tushuncha	So‘z

Shunday qilib inson atrofidagi dunyo uchta shaklda taqdim etiladi:

- dunyoning haqiqiy surati
- dunyoning madaniy (yoki konseptual) manzarasi
- dunyoning lingvistik tasviri [6;41]

Dunyoning madaniy (konseptual) manzarasi – bu insonning g‘oyalari asosida shakllangan, his-tuyg‘ular orqali idrok qilingan bo‘lib, uning ongida qabul qilinadigan tushunchalar prizmasi orqali haqiqiy manzaraning aksi hisoblanadi. Shu jihatdan, konsept ham turli xalqlarda turlicha farqlanadi, bu millatning yashash sharoiti, an‘analari, geografik joylashuvi, turmush tarzi kabi bir qancha omillarga borib taqaladi.

S.GTer-minasovanning fikricha, dunyoning lingvistik tasviri dunyoning madaniy manzarasi orqali aks etadi va u madaniy (konseptual) manzaraga qaraganda kambag‘aldir, chunki konseptual manzaraning yaratilishida til bilan bir qatorda aqliy faoliyatning boshqa turlari ham ishtirok etadi [6;51]. Konsept – tafakkur birligi va uning asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma’no umumlashmasi yotadi. Konseptning shakllanishi individual obraz tug‘ilishidan boshlanib, lisoniy birliklarning paydo bo‘lishi bilan tugaydi [4;17].

Dunyoning lingvistik tasvirini yaratishda frazeologizmlar muhim rol o‘ynaydi. Frazeologik birliklar millat hayotining ko‘zgusi hisoblanadi, ular dunyoning tasviri bilan bog‘liq bo‘lgan obyektlarning xususiyatlarini bildiradi, tavsiflovchi vaziyatni (matnni) nazarda tutadi, uni baholaydi va unga munosabat bildiradi [1;15]. Til o‘tmishdan hozirgi kungacha avlodlar o‘rtasidagi muloqotni ta’minlaydi. Tilning milliy va madaniy frazeologik tizimi va o‘ziga xoslik muammolari bugungi kunda ko‘pgina tilshunoslarning tadqiqot obyekti bo‘lib, bu mavzuga e’tiborning ortishi “Til va madaniyat” masalalariga umumiy qiziqishning ortishi sabablidir [1;56]. Demak, frazeologik birliklarning miliy-madaniy o‘ziga xoslik muammosi zamonaviy tilshunoslik uchun tobora dolzarb bo‘lib borayotgan “Til va madaniyat”, “Til va tafakkur” kabi masalalarga mos ravishda rivojlanishini taqozo etadi va bundan

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ko‘rinadi-ki, frazeologik iboralarni ham konsept doirasida tadqiq qilish hozirgi kunda o‘rganilishi kerak bo‘lgan masalalardan biridir.

Milliy-madaniy birliklarning tuzilishi bir tomondan o‘ziga xos qoidalar asosida tashkil qilingan bo‘lsa, ikkinchi tomondan konsept, ramzlar, belgilar ularni bitta tizimga bog‘lashga xizmat qiladi. Lingvokulturologiya – etnolingvistikaning bir qismi bo‘lib, til va madaniyatning bir-biriga mos jihatlarini, ularning o‘zaro ta‘sirini o‘rganuvchi fan. Teliya lingvokulturologiyada tilning o‘zaro ta‘sirini va madaniy turlarini nafaqat etnik shaklda, balki milliy va umumbashariy madaniyatlarning hozirgi holati yoki ma‘lum bir davrlar, insonlar hayotining davrlari yoki ijtimoiy guruhlarini o‘rganish va ularni tavsiflash uchun mo‘ljallangan deb hisoblaydi [6]. Royzenonning fikricha, tilning frazeologik tarkibi “uning eng o‘ziga xos hodisasini” ifodalabgina qolmasdan, balki xalqning milliy o‘ziga xosligini va dunyo manzarasining milliy jihatlarini ham ifodalab keladi [7].

Lingvokulturologiya

tilning frazeologik fondini ham o‘z ichiga qamrab olishini hisobga olgan holda ushbu maqolada o‘zbek tilining frazeologik iboralaridan ayrimlari “xafalik” konsepti doirasida tahlil qilindi. Tahlil uchun Xurshid Do‘stmuhammad, Isajon Sulton, Luqmon Bo‘rixon asarlaridan foydalanildi Asarda keltirilgan iboralardan “xafalik” konseptini ifodalovchi frazemalar saralab olindi.

1. **Ko‘ngli yarimta** – g‘am-tashvish bilan ruhan ezilgan, dushkast insonlarga nisbatan qo‘llaniladi. Bolalari katta bo‘lgach, odam bolasining ko‘ngli yarimta bo‘lib qolar ekan, degan xulosaga keldi u. (Isajon Sulton “Onaizorim”)

2. **Yuragi uvushmoq** – insonning ma‘yus, ezgin holatini ifodalashda qo‘llaniladi.

Olomon qaytib yo‘lning o‘rtasida to‘dalashganda Ahmadali Kimsanning kinoyasini unutib “Tez yordam” izidan yuragi uvushib qaradi. (X.Do‘stmuhammad “Panoh”)

3. **Ko‘ngliga qil sig‘maydi** – shaxsning ruhan ezilib, hech narsa bilan mashg‘ul bo‘la olmaslik holatini ifoda etadi. *Ba‘zan hayol olib qochganda ko‘ngliga qil sig‘mas, yolg‘iz qolgisi, basharti uchar mavjudotlar yana kelguday bo‘lsa, ulardan talay narsalarni so‘rab olishni ko‘ngliga tugar, bu yoqda birortasi bilan o‘ylarini dardlashishga ikkilanar, shunda u jilla qursa Aminvoy akaga borib maslahat solishni ko‘ngliga tugdi. (X.Do‘stmuhammad “So‘roq”)*

4. **Qon yig‘lamoq** – insonning qattiq, ezilib, azobli holatda yig‘lashni anglatadi.

Hali dunyoga kelmagan o‘g‘li firoqida qon yig‘lab kuldi. (X.Do‘stmuhammad “So‘roq”)

5. **Pichoqsiz (yoki tig‘siz) so‘ydi** – insonga qattiq alam yetkazib, xafa qilishni anglatadi. *Aminvoy Bozorni hovuridan tushirayotgan edi. “Shofiriga qo‘shib yubordi,*

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

shofiri uni **pichoqsiz so‘ydi**, so‘ymadi, nimaladi!.. Tovaga solib o‘tda tobladi, mana endi bunisi uning boshidan suv purkayapti... (X.Do‘stmuhammad “So‘roq”)

6. **Jigari (yoki bag‘ri, yuragi) xun bo‘lmoq** – inson biror narsadan qattiq ta’sirlanib iztirob chekishini, ruhan qattiq ezilishini bildiradi. Bu gaplarning Farhod uchun yangiligi yo‘q edi, shu bois u Umidning **jigarini xun qilib** hikoya qilishiga ortiqcha e’tibor bermadi, Aziz esa Umidning gaplarini jon qulog‘i bilan tingladi. (X.Do‘stmuhammad “Ko‘za”)

7. **Qovoq solmoq, qovog‘i soliq** – kishining nimadandir norozi, xafa, kayfi buzuq holatda ekanligini anglatadi.

– Ha, qayoqqa? – dedi, bema’ni iljayib.
– Bolam ochqab ketdi, – dedi Ra’no, **qovog‘ini solib**. (Isajon Sulton “Onaizorim”)

8. **Ichi achimoq (yoki kuymoq)** – insonning xafa bo‘lishini, achinib kuyinishini bildiradi.

Dili (yoki ko‘ngli, ta’bi) xufton – insonning ko‘ngli g‘ash bo‘lib, xafa ekanligini ifodalaydi.

Orzu-havaslarini mustajob bo‘la qolmayotganidan ezilib uvoqqina bo‘lib qolgan onasini zimdan kuzatib **ichi achishib** ketar, kelin topilmayotganining asl boisi onasini qanchalik iztirobga solsa, buni Umid ham ich-ichidan shunchalik his qilar, lekin his qilayotganini na onasi, na-da u og‘iz ochib gapirmas, ayni shunday **ko‘ngli xufton** damlarida onasini chalg‘itish va ovutish uchun ataydan hazil-huzullar o‘ylab topar, topardi-yu, o‘z ichidan zil ketib yurardi. (X.Do‘stmuhammad “Ko‘za”)

9. **O‘pkasi to‘lmoq** – insonning xafaligidan yig‘lash darajasiga kelishini bildiradi.

“Yugurma, Shabnam!.. Qo‘rqma! Qo‘rqma!” deb baqirdi jon holatda Bozor qad rostlab, u qad rostlab ulgurmay xotini yetib keldiyu, o‘zining erining ustiga tashlab quchoqlaganicha **o‘pkasi to‘lib** yig‘lab yubordi. (X.Do‘stmuhammad “So‘roq”)

10. **Ko‘ngli sovimoq (yoki qolmoq, qaytmoq)** – biror bir insonning boshqa bir insonga avvalgi yaxshi munosabati yo‘q bo‘lib, ixlosi qaytishini, yoqtirmaydigan bo‘lib qolishini anglatadi. Bu yog‘iga Ko‘klamning o‘zi ham hayron: he yo‘q-be yo‘q domla Niyozovichdan **ko‘ngli qoldi**, xuddi ovloqda pisib, shuni kutib yurganday Nazirov domla zudlik bilan uni huzuriga chaqirtirdi. (X.Do‘stmuhammad “Oromkursi”)

11. **Ta’bi xira (yoki tirriq, kir, xira, namozshom)** – insonning kayfiyati buzuq holatini, xafaligidan anglatadi. Men universitetning bu bo‘limini tasodifan tanlab, tasodifan talaba bo‘lib qolgan esam-da, o‘qishim o‘zimga yoqar edi. Biroq ta’til paytlari qishloqqa borganimda ten-to‘shlarim, qarindosh-urug‘lar **ta’bimni tirriq** qilishardi. (Luqmon Bo‘rixon “Jaziramadagi odamlar”).

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

12. **Dunyo ko‘ziga tor** – kishining chidab bo‘lmaydigan darajada diltangligini, xafaligini bildiradi. *U she‘rni she‘rga, gapni gapga ulab tinimsiz javrayotgan boshlovchiga adovat bilan tikiladi, hoynahoy, ana shu xizmatni unga topshirishmaganidan dunyo ko‘ziga tor ko‘rinmoqda. (Luqmon Bo‘rixon “Jaziramadagi odamlar”).*

13. **Og‘ir botmoq** 1) xafa qiladigan, malolli; 2) xazm bo‘lmaslik (ovqatga nisbatan). Quyida keltirilgan kontekstda **og‘ir botmoq** iborasi “**xafalik**” ma’nosini ifodalab kelgan.

Bizning el esa qozon-qozon go‘sh t qaynatib ham to‘rtta mehmonni eplab to‘yg‘azolmaydi... Momoning bu iddaonamo shamasi kelinini – Maysara yangamga og‘ir botgan ekan. (Luqmon Bo‘rixon “Jaziramadagi odamlar”).

14. **Qovog‘idan qor yog‘moq** 1) juda xafa, achchig‘i chiqqan, avzoyi buzuq 2) badjahl, xo‘mraygan. *Otam tajanglikdan chakka tomirlari bo‘rtib-o‘ynoqlab, so‘kina-so‘kina, qosh-qabog‘idan qor yog‘ib uyga qaytadi. (Luqmon Bo‘rixon “Jaziramadagi odamlar”).*

Ushbu maqolada keltirilgan iboralar insonning g‘am-alamda yurishi, xafalik, diltanglik, tushkunlik, ruhan qattiq iztirob chekishi, ma’yuslik kabi holatlarini ifodalab kelgan. Shu bilan birgalikda, tana a’zolari orqali yanada ta’sirli va jozibador tarzda ifodalanganligini ham guvohi bo‘lishimiz mumkin. Masalan, *qovog‘idan qor yog‘moq, dunyo ko‘ziga tor, o‘pkasi to‘lmoq, jigari xun bo‘lmoq, yuragi uvushmoq* kabi iboralardagi *qovoq, ko‘z, yurak, o‘pka, jigari* kabi somatizmlar ishtirok etganini ko‘rishimiz mumkin. Tadqiqot jarayonida I.Sultonning “Onaizorim” qissasidan 2 ta, X.Do‘stmuhammadning hikoya va qissalaridan (“Ko‘za”, “Savol”, “Oromkursi”, “Panoh”) 8 ta, L.Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” asaridan 4 ta “xafalik” konseptini ifodalovchi frazeologizmlar saralab olindi. Saralash jarayonida asarda takror qo‘llangan iboralar qayd etilmadi.

Xulosa qilib aytganda, insonlarning turmush tarzi, fikrlashi, atrof-muhiti iboralarning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot uchun saralab olingan iboralarning aksariyati so‘zlashuv uslubda ham faol qo‘llaniladi. Undan tashqari iboralarni konsept jihatdan o‘rganish va tahlil qilish ularning badiiy matndagi rolini aniqlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Анисат Шамиловна, Концепт «Богатство» во фразеологических и паремиологических единицах лакского русского и английского языков, диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук, Махачкала, 2013. 147 ст.
2. Бўрихон Лукмон. Жазирамадаги одамлар: Роман. // Лукмон Бўрихон. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2005. – 336 б.
3. Дўстмухаммад, Хуршид. Қиссалар. – Т.: «Sharq», 2011. – 512 б.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

4. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. “Сангзор” нашриёти, 2006, 92-бет.
5. Султон, Исажон. Боғи Эрам. Қисса ва ҳикоялар. И. Султон. – Т.: «Sharq», 2015. – 256 б.
6. С.Г.Тер-минасова Язык и межкультурная коммуникация. Слово / Slovo Москва 2000.146 ст.
7. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: «Школа языка русской культуры», 1996. – 288 с
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.: A. Madaliyev, D. Xudoyberganova. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 964 bet.